

A.U.Usmonov

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich doktoranti

D.D.Tuxtamuratova

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

KOGON SHAHRIGA GEOGRAFIK VA GEODEMOGRAFIK TAVSIF

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining asosiy shakllaridan biri bo'lgan shaharlar haqida, jumladan Kogon shahrining tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik va geodemografik xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'rta shahar, aholi dinamikasi, Kogon shahri, geodemografiya, transport markazi, qulay geografik o'rin.

A.U.Usmanov

Doctoral student of the 2nd stage Samarkand State University

D.D.Tukhtamuratova

Student of the 2nd stage Bukhara State Pedagogical Institute

GEOGRAPHICAL AND GEODEMOGRAPHICAL DESCRIPTION OF KAGAN CITY

Annotation: In this article, cities, which are one of the main forms of territorial organization of social life, including the natural, socio-economic, geographical and geodemographical features of the Kagan city, are described in detail.

Key words: Medium-sized city, population dynamics, Kagan city, geodemography, transport center, comfortable geographical location.

A.U.Усмонов

Досторант 2 курса Самаркандского государственного университета

Д.Д.Тухтамуратова

Студент 2 курса Бухарского государственного института

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ И ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ГОРОДА КОГОНА

Аннотация: В статье подробно описаны города, являющиеся одной из основных форм территориальной организации общественной жизни, включая природные, социально-экономические, географические и геодемографические характеристики города Когона

Ключевые слова: Средний город, динамика населения, город Когон, геодемография, транспортный центр, выгодное географическое положение.

Kogon shahri viloyat markazidan (Buxoro shahri) 12 km uzoqlikda Buxoro aglomeratsiyasi hududida joylashgan. Kogon shahri – Buxoro viloyatida o‘zining ma’muriy, iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra ikkinchi shahar hisoblanadi. Kogon shahriga 1888-yilda temir yo‘l stantsiyasi sifatida asos solingan. O‘rganilayotgan vaqtda Buxoro viloyati iqtisodiy hayotida ham biroz bo‘lsada jonlanish kuzatildi.

Aholisi. Ayni paytda, Kogon shahri yirik sanoat va transport markazi hisoblanib, unda 64,0 ming kishi yashamoqda (01.01.2023 y). Viloyatning asosiy temir yo‘l tuguni hisoblangan Kogon shahri aholisining soni, viloyat jami shahar aholisining 8,6 (viloyat jami aholisining 3,2) foiziga teng.

Shahar bugungi kunda o‘rta shaharlar toifasiga mansub bo‘lib, bunday shaharlar respublikada 22 ta, Zarafshon iqtisodiy rayonida esa 4 tani tashkil etadi.

1-jadval

Zarafshon mintaqasi o‘rta shaharlarining aholi soni dinamikasi

T/r	Shaharlar nomi	Aholi soni, ming kishi									
		1926	1939	1959	1970	1979	1989	2000	2010	2021	2023
1	Kattaqo‘rg‘on	14,5	25,9	34,1	44,0	53,0	58,3	66,1	77,8	91,7	93,4
2	Zarafshon				14,7	35,3	47,4	53,3	72,5	85,1	85,6
3	Urgut	3,7	16,5	10,5	14,7	20,4	36,9	49,4	58,8	69,2	71,1
4	Kogon	10,4	17,6	21,1	34,1	41,8	47,9	52,9	55,3	61,5	64,0

Izoh: Jadval aholi ro‘yxatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shahar aholi sonining o‘shish dinamikasi tahlil qilinganda, aholi soni oxirgi yuz yilda doimiy ravishda o‘shish qayd etganini ko‘rish mumkin (1-jadval). 1926-yilda shaharda 10,4 ming kishi istiqomat qilgan bo‘lsa, 30 yildan ko‘proq ichida shahar aholisi 2 barobarga oshgan. Keyingi 2 marta ko‘payishi uchun esa bundanda qisqa vaqt ya’ni 20 yil yetarli bo‘lgan. Ya’ni 1959-1979-yillar oralig‘ida shahar aholisi soni birmuncha tezroq o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

2023-yil boshida tug‘ilganlar 1733 kishi (o‘g‘il bolalar 878 ta, qiz bolalar 855 ta), o‘lganlar 366 kishi (erkaklar 168 kishi, ayollar 198 kishi). Tabiiy ko‘payish 0,8 promilleni tashkil qiladi. Mazkur yilda ko‘chib kelganlar 494 kishi, ko‘chib ketganlar esa 456 kishiga teng. Qiziq tomoni shundan iboratki, maxanik

ko'payish musbat saldoga ega. Tuzilgan nikohlar soni 486 ta, ajrashishlar esa 128 tani tashkil qiladi.

2-jadval

Kogon shahri aholisining milliy tarkibi

T/R	Millatlar	2018 yil 1 yanvar xolatida (kishi)	Foiz xisobida
1	O'zbeklar	45143	75.1
2	Qoraqalpoq	20	0.03
3	Ruslar	6583	10.94
4	Ukrainlar	472	0.78
5	Qozoqlar	225	0.37
6.	Tojiklar	4542	7.54
7	Tatarlar	1201	1.99
8	Ozərbayjonlar	513	0.85
9	Koreys	66	0.1
10	Beloruslar	145	0.24
11	Turkmanlar	190	0.31
12	Qirg'iz	12	0.01
13	Boshqalar:	1052	1.74
	JAMI:	60164	100.0

Aholisi asosan o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining aksariyat qismi temiryo'l transportida ishlaydi.

Sanoati. Bu yerda sanoatning rivojlanishiga uni hududidan o'tkazilgan temir yo'l ijobiy ta'sir qildi.

Shuning uchun sanoat rivojlanishi asosan temir yo'l stantsiyasi – Yangi Buxoro¹ da kuzatildi. 1917-yil arafasida Yangi Buxoroning iqtisodiy salohiyati oshib, u yirik sanoat markaziga aylandi. Ana shu davrda manzilgohda 15 ta sanoat korxonasi mavjud edi.

1926-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati davrida shahar manzilgohlarning yangi shakli shahar tipidagi posyolkalar (sh.t.p) vujudga keldi. Dastlabki aholi ro'yxatiga ko'ra, O'zbekistonda 17 ta sh.t.p. lar ro'yxatga olingan bo'lib, ular orasida Buxoro viloyatning yagona manzilgohi Yangi Buxoro (Kogon) ham bor edi. O'sha davrda shahar aholisi 5 ming kishidan ortmas edi.

¹ Kogon shahri 1888-yilda Yangi Buxoro nomi bilan tashkil topgan. 1935-yildan keyin shahar Kogon nomi bilan atalgan.

1929-yil Yangi Buxoro (Kogon) shaharlar qatoriga qo'shildi. Kogon – Qarshi – Termiz – Dushanbe temir yo'lining qurilishi manzilgohning transport tuguni sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi va unga shahar maqomini olib berdi. Shundan so'ng shaharda ko'plab sanoat korxonalari – yog'-moy, paxta tozalash, ohak zavodlari va vagon ta'mirlash korxonasi ishga tushirildi. Natijada shaharning nafaqat transport ahamiyati, balki sanoat ahamiyati ham ortdi.

1959-yilda Gazli-Kogon gaz quvuri o'tkazilib, gaz kompressor stansiyasi barpo etilishi shahar sanoati shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shaharda hozirgi kunda 30 dan ortiq sanoat korxonalari bor. Shaharda yengil va oziq-ovqat, kimyo sanoati yaxshi rivojlangan. Kogon shahri viloyat sanoat mahsulotlarining 4,7 % qismini tashkil qiladi. Tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, Kogon shahri viloyat oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining 11,6 %, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 6,2 %, kiyim ishlab chiqarishning 8,1 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning 7,4 %, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning 17,0 %, metallurgiya sanoati mahsulotlarining 48,2 %, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 58,3 %, Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning 53,9 % ulushi ishlab chiqariladi.

Shaharda ijtimoiy soha obyektlari ham yaxshi rivojlangan. Shaharda 11 ta umumta'lim maktabi, 21 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 5 ta shifoxona muassasi, 22 ta ambulator-poliklinikalar, 1000 ga yaqin tibbiyot xodimi, 1 ta axborot-kutubxona markazi

Kogon shahri geografik o'rning qulayligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- ❖ Kogon shahridan xalqaro ahamiyatga ega Toshkent – Turkmanboshi (Krasnovodsk) va Moskva – Dushanbe temir yo'llarining o'tganligi;
- ❖ shahar hududidan Buxoro – Qarshi, Denov – Urganch, Termiz – Nukus kabi avtomobil yo'llarining o'tganligi;
- ❖ viloyat markazi – Buxoro shahriga yaqin joylashganligi;

- ❖ Buxoro viloyatining asosiy sanoat mintaqasi – Buxoro - Qorovulbozor o‘qi ichida joylashganligi;
- ❖ Jayron pitomnigi va To‘dako‘l suv ombori singari turistik va rekreatsion obyektlarga yaqinligi;
- ❖ Kogon atrofida xilma-xil qurilish materiallari va boshqa qazilma boylik konlarining mavjudligi va h.k.

Xulosa. Yuqoridagi xususiyatlar Kogonning qulay geografik o‘rinda joylashganligidan dalolat beradi. Albatta, bular orasida shaharning transport geografik o‘rni muhim hisoblanadi. Qolaversa, aynan mana shu omil Kogon shahrining vujudga kelishi uchun ham bosh omil bo‘lib xizmat qilgan. Kogon hududidan o‘tgan xalqaro va respublika darajasidagi yo‘llar shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada Kogon nafaqat Buxoro viloyatining balki, O‘zbekistonning janubi-g‘arbdagi asosiy darvozasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.U.Usmonov. “O‘zbekistonda o‘rta shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi” Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro. 2022.
2. A.M.Mavlonov, A.U.Usmonov. “Development of middle cities in Zarafshan region” ERPA International Journal of Research & Development. Issue:12, December 2021
3. A.K.Ergashev. “Kogon tumani geografiyasi: tabiiy va iqtisodiy jihatlari” Bitiruv malakaviy ishi. Buxoro 2018.